XULQIDA OG‘UVCHANLIGI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNING SINF RAHBARLARI VA OTA-ONALARI BILAN ISHLASH

Eshquvvatova F.K.,
Sirdaryo viloyat, Guliston shahar 8-sonli
umumta’lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: mazkur maqolada xulqida og‘uvchanligi bo‘lgan o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning psixologik va ijtimoiy sabablari tahlil qilinadi. Maqolada sinf rahbarlari, ota-onalar va pedagog-psixologlar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar, og‘uvchanlikni bartaraf etishga qaratilgan intervensiya strategiyalari, shuningdek, o‘quvchilarning ijobiy xulq-atvorini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Maqsad - og‘uvchan o‘quvchilarni ijtimoiy moslashuvga erishishlari, ta’lim olishlari va jamiyatga foydali a’zo bo‘lib yetishishlariga ko‘maklashish.

Kalit so‘zlar: og‘uvchan o‘quvchilar, xulq-atvor, sinf rahbari, ota-onalar, hamkorlik, intervensiya, psixologik yordam, ijtimoiy moslashuv.

Abstract: this article analyzes the specific characteristics of students with deviant behavior, their psychological and social causes. The article provides recommendations for work carried out in collaboration with class teachers, parents and pedagogical psychologists, intervention strategies aimed at eliminating deviant behavior, as well as for the formation of positive behavior in students. The goal is to help deviant students achieve social adaptation, receive education and become useful members of society.

Keywords: deviant students, behavior, class teacher, parents, cooperation, intervention, psychological support, social adaptation.

Maktab yoshidagi o‘quvchilar tarbiyasida muammoli holatlarning, xususan, xulqida og‘uvchanlik (devian xatti-harakat) bilan bog‘liq hollarning ortib borishi pedagog va psixologlar e’tiborini tobora ko‘proq tortmoqda. Ushbu muammoga samarali yechim topish — sinf rahbari, o‘qituvchi, ota-ona va psixologning uzviy hamkorligiga tayanadi. Xulqida og‘uvchanlik bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlashning ilmiy asoslangan metodlari ularning shaxsiy rivojiga, ijtimoiylashuviga va ijobiy yo‘nalishga o‘tishiga zamin yaratadi.

Psixologiyada og‘uvchan xatti-harakatlar ijtimoiy qabul etilgan me’yorlardan chekinish, tajovuzkorlik, mas’uliyatsizlik, qarshilik ko‘rsatish, beparvolik va ba’zan jinoyatga moyillik sifatida talqin qilinadi. Bunday xatti-harakatlar quyidagi sabablarga bog‘liq bo‘lishi mumkin: oilaviy muhitdagi nosog‘lom munosabatlar (konflikt, befarqlik, zo‘ravonlik); pedagogik e’tiborsizlik, sinfda diqqatga olinmaslik;

o‘z-o‘zini ifoda eta olmaslik, psixologik bosim; do‘stlar ta’siri yoki maktab muhitining salbiy jihatlari.

Oldin bunday bolalarni aniqlab olish va zaruriy choralarni ishlab chiqish samarali yo‘l hisoblanadi. Xulqida og‘uvchan bolalarni aniqlash — ta’lim jarayonidagi eng mas’uliyatli, nozik va ehtiyotkorlik bilan yondashiladigan jarayonlardan biridir. Bunda faqatgina tashqi belgilar emas, balki o‘quvchining ichki kechinmalari, ehtiyojlari, oilaviy sharoiti, ijtimoiy muhitidagi o‘rni chuqur o‘rganilishi lozim. Aniqlanganidan so‘ng esa ular bilan individual tarzda ishlash strategiyasi ishlab chiqilishi kerak.

Quyida og‘uvchan o‘quvchilarni aniqlash vositalari va metodlari bir necha yo‘llarini ko‘rib o‘tamiz.

Kuzatish usuli- dars davomida yoki tanaffus vaqtida o‘quvchining xatti-harakatini muntazam kuzatish.

Belgilar: muallimga bepisand munosabat, agressivlik, befarqlik, haddan tashqari faol yoki sust harakatlar, jamoada noqulaylik his qilishi.

Psixologik testlar va diagnostika qilish usuli

B. Bass va A. Darki: Agressivlik va tajovuz darajasini aniqlash testi.

Luscher testi: Emotsional holatni baholash.

Sotsiometriya (J. Moreno):

Individual suhbat olib borish orqali:

Bola bilan individual suhbat orqali uning dunyoqarashi, oilaviy sharoiti, o‘z-o‘ziga bahosi, boshqa odamlarga munosabati aniqlanadi.

Suhbatda psixologik qulaylik muhitini yaratish juda muhim hisoblanadi.

Guruh ichidagi ijtimoiy mavqe va chetlanish darajasini ko‘rsatadi.

Portfel va portfolioni tahlil qilish metodi yordamida:

O‘quvchining yozma ishlari, daftarlari, chizmalari va kundalikdagi holatlari uning emotsional holati haqida ma’lumot beradi.

Bunday bolalarni tarbiyasida sinf rahbarining roli ham katta hisoblanadi chunki sinf rahbari faqat ma’muriy-nazorat funksiyasi bilan cheklanmaydi. U — o‘quvchining ijtimoiy-psixologik rivojlanishida asosiy figuradir. Quyidagilar sinf rahbarining samarali ish yo‘nalishlaridir:

Individual yondashuv: Har bir muammoli o‘quvchining shaxsiyati, oilaviy sharoiti, ijtimoiy aloqalari chuqur o‘rganiladi.

Psixologik diagnostika: Psixolog yordamida temperament, o‘zini tutish darajasi, stressga chidamlilik kabi mezonlar aniqlanadi.

Ijobiy rag‘bat va ishonch: Og‘uvchan o‘quvchini tanqid emas, balki ishonch asosida ijobiy tomonga yo‘naltirish.

Faollikka jalb qilish: O‘quvchini maktab jamoasidagi foydali faoliyatlarga (to‘garak, sport, sahna, ijtimoiy loyihalar) jalb qilish.

Shu bilan birga oilada ota-onaning ham ma’suliyati katta hisoblanadi. Ota-onalar ko‘pincha farzandlarining salbiy xatti-harakatlarini inkor etishadi yoki mutlaqo befarq bo‘lishadi. Shu sababli sinf rahbari uchun ota-onalar bilan alohida ishlash quyidagilarni o‘z ichiga olishi zarur:

Ochiq muloqot: Raqobat emas, hamkorlik ruhidagi suhbatlar orqali muammoni tan olish va birgalikda yechim izlash.

Pedagogik savodxonlikni oshirish: Tarbiya metodlari, kommunikatsiya usullari bo‘yicha treninglar, seminarlar o‘tkazish.

Mas’uliyatni bo‘lishish: Ota-onaning nafaqat nazoratchi, balki hamkor pozitsiyasida bo‘lishini ta’minlash.

Og‘uvchan xatti-harakatli o‘quvchilar bilan ishlashda profilaktika va tuzatish choralari parallel olib borilishi lozim. Bunga quyidagilar kiradi:

Sotsiometrik tadqiqotlar: Guruh ichidagi o‘quvchining ijtimoiy pozitsiyasini aniqlash.

Rollar orqali psixodrama mashg‘ulotlari: O‘quvchi o‘zini boshqa holatda tasavvur qilishi, empatiyasini rivojlantiradi.

Motivatsion ishlash: O‘quvchining kuchli tomonlariga e’tibor qaratib, ularni rivojlantirishga yo‘naltirish.

Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o‘zbekona ta’bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo‘yish, ya hshi muallim qo‘liga topshirib savodini chiqarish, ilmli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir. Maktabning oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi sinf rahbari orqali amalga oshiriladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1.Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o‘rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi;

2. O‘quvchiga nisbatan maktabning va oilaning yagona talablar qo‘yishga erishadi;

3. Sinf ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning sinfdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta’minlaydi;

4. Ota-onalar o‘rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko‘taradi;

5. Sinfga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va maktabga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o‘rnatadi va ularni sinfdagi tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Sinf rahbarining o‘quvchini yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida birbirlariga qanchalik ko‘p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog‘liq. Ana shu maqsadda sinf rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

- O‘quvchining o‘z o‘rtoqlari, o‘qituvchilari bilan munosabatida vujudga kelgan holatlarning xarakteri, maktabdagi munosabatlarnnig doirasi.
- O‘quvchining ayrim hatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish.

Sinf rahbari o‘z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to‘plangan ma’lumotlarni vaqti-vaqtida o‘rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo‘llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo‘yib bo‘lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Xulosa o‘rnida xulqida og‘uvchanligi bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishlash ko‘p qirrali, chuqur yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda sinf rahbari — asosiy ko‘prik bo‘lib, u nafaqat o‘quvchi va ota-onani, balki pedagogik jamoa va psixologlarni ham hamkorlikka undaydi. O‘zaro ishonch, ijobiy motivatsiya va izchil muloqot orqali

bunday o‘quvchilarni jamiyatga moslashtirish va ularga muvaffaqiyat sari yo‘l ochish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахмедова З.Р. Работа с трудными детьми в школе: теория и практика. – Ташкент: Fan, 2022. – 164 с.
2. Shomurodov D. Yoshlarda deviant xulqni oldini olishda maktab psixologining roli. // Pedagogik mahorat, 2023, №2. – B. 61–64.
3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. O‘quvchilar tarbiyasiga oid metodik qo‘llanma. – Toshkent: Ma’naviyat, 2021.